



XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK TAHLILI (O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANI MISOLIDA)

Hafizova Xonzoda

Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi

xonzodarvsh2513@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi o‘zbek xalq maqollari lingvistik va badiiy jihatdan tahlil qilgan. Asarda qo‘llanilgan maqollarning semasi batafsil izohlangan, ularning hayotiy ahamiyati va badiiy vazifasi yoritilgan hamda maqollar tarkibidagi antiteza san’ati orqali ifodalangan qarama-qarshi tushunchalar ma’nosi ifodalangan. Shuningdek, maqollarning turli tillardagi variantlari solishtirilib, xalq ijodining boyligi va umumiy madaniy merosdagi o‘rni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: “Ikki eshik orasi” romani, maqol, antiteza, variantlilik, semantika, lingvistik tahlil.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА ОКИРА КАШИМОВА “МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ”)

Аннотация. В данной статье анализируются узбекские народные пословицы в романе народного писателя Узбекистана Откира Хошимова “Между двух дверей” с лингвистического и художественного аспектов. Подробно раскрывается семантика использованных в произведении пословиц, раскрывается их важное значение и художественная функция, раскрывается смысл противопоставленных понятий, выраженный посредством искусства антитезы. Также сравниваются варианты пословиц на разных языках,



показывающие богатство народного творчества и их место в общем культурном наследии.

Ключевые слова: роман “Между двух дверей”, пословица, антитеза, вариантность, семантика, лингвистический анализ.

LINGUISTIC ANALYSIS OF FOLK PROVERBS (ON THE EXAMPLE OF OTKIR KASHIMOV'S NOVEL “BETWEEN TWO DOORS”)

Abstract. This article analyzes the Uzbek folk proverbs in the novel “Between Two Doors” by the national writer of Uzbekistan, Otkir Hoshimov, from a linguistic and artistic perspective. The semantics of the proverbs used in the work are explained in detail, their vital significance and artistic function are highlighted, and the meaning of opposing concepts expressed through the art of antithesis is expressed. Also, the variants of the proverbs in different languages are compared, showing the richness of folk creativity and their place in the general cultural heritage.

Keywords: novel “Between Two Doors”, proverb, antithesis, variant nature, semantics, linguistic analysis.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi *O‘tkir Hoshimov* o‘zining betakror qalami bilan o‘zbek adabiyotida hayotning eng nozik tomonlarini, inson ruhiyatining eng yashirin burchaklarini ochib bera olgan ijodkor sifatida muhim o‘rin egallagan. Adibning “*Ikki eshik orasi*” romani uning salmoqli asarlaridan biridir. Asar 1986-yilda nashr etilgan bo‘lib, muqaddima, yetti qism, qirq yetti bob va xulosadan iborat. Roman qariyb yarim asrlik voqealarni qamrab oladi. Unda turli taqdirlar misolida urush yillarida xalq boshiga tushgan qiyinchiliklar, odamlarning cheksiz mashaqqatlar ichida yashaganini muallif o‘ziga xos badiiy uslubda yorqin tasvirlab bergan.



O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini lingvistik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, asarning badiiy qiymatini chuqurroq anglash uchun romandagi *maqollarga* alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki aynan shu til boyliklari yozuvchining badiiy didini, xalq og'zaki ijodi merosidan ilhomlangan nutq uslubini va obrazlarni jonli, ta'sirchan ifodalash qobiliyatini ochib beradi. Maqollar orqali yozuvchi asar qahramonlarining xarakterlarini yanada chuqurroq tasvirlaydi [3,17]. Maqollar xalq tajribasidan o'tgan, voqea-hodisalarning so'zdagi o'zgarmas ifodasidir. Izohli lug'atda maqolga "hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap" deb ta'rif beriladi [1,184].

Asarda qo'llanilgan maqollar:

*" – Bahay! **Mehmon otangdan ulug'!** – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kepsiz, mehmon!" [2, 51].*

Mehmondo'stlik insonning eng oliy fazilatlaridan biridir. O'zbek xalqining azaldan mehmondo'st bo'lib kelgani, samimiy va iliq kutib olishi bilan mashhur ekanligi tarixdan ma'lum. Xalqimiz mehmon kelishini alohida qadrlaydi, hatto hayotdagi kichik belgilarni – masalan, choy shamasining piyolada tik turishi yoki tushdagi alomatlarini – mehmon kelishining ishorasi sifatida qabul qilgan. Bu fazilat ko'plab o'zbek xalq maqollarida ham ifodalangan. Maqollarda mehmonni kutishdagi tartib va odoblar, mezbonning iliq va samimiy qabul qilishi hamda mehmonning o'zini tutishi lozim bo'lgan jihatlar yoritiladi. Masalan, "Mehmondorchilik – turmush ziynati", "Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan yonadi", "Mehmon kelgan uydin baraka arimaydi", "Odam bor joyga odam keladi" kabi maqollar xalqning bu qadriyatga e'tiborini ko'rsatadi [8]. Jumladan ushbu maqolda xalqimiz mehmonni oiladagi eng hurmatli shaxs – otadan ham ustun qo'yib qadrlashi kerakligini ta'kidlaydi. "Mehmon otangdan ulug'" maqoli nafaqat xalqimizning qadimiy odob-axloq me'yorlarini, balki ijtimoiy madaniyatini ham aks



ettiradi. Bu maqol har birimizga mehmondo'stlikni eng oliy fazilat sifatida qadrlashga, insoniy hurmat va samimiyatni hayotiy amalda namoyon etishga chaqiradi. *Varianti: "Mehmon – otangdan aziz". Sinonimi: "Ota ulug', otadan mehmon ulug'".* Maqolda "ota" qarindoshlik termini qo'llanilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida "ata" termini "ota" degan ma'noni anglatib kelgan. Bundan kelib chiqadiki, qadimgi turkiy tilda "ota" manosini anglatgan so'z "ata" tarzida talaffuz qilingan. Asarda "dada" termini ham uchraydi. Bu termin o'g'uzchadan "ota" degan ma'noni bildiradi. Ota qon-qarindoshlik termini sifatida turkiy tillarda asosan bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini asrab olgan shaxsga nisbatan aytiladigan termindir. Izohli lug'atda esa ota terminiga izoh quyidagicha keltirilgan: 1) farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z bolalariga nisbatan); 2) yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi; 3) og'il bolani erkalash uchun ishlatiladi; 4) biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida (ko'chma); 5) mehribon boshliq, rahnamo (ko'chma); 6) el-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi katta ulug' zot; O'zbek tilining etimologik lug'atining (1-jild) da keltirilishicha, "ota" so'zi "erkak kishi o'z farzandiga nisbatan" ishlatiladi. O'zbek tilida bu so'z boshlanishidagi a unlisi â unlisiga, oxiridagi a unlisi ä unlisiga almashgan. Ya'ni: ata – âta [6,3]

*"Uch oycha o'tgandan keyin ko'nglimning behuzur bo'lishi faqat zavoddagi ishlardan emasligini payqadim. Oysara opa rost aytgan ekan: **oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa o'n beshi yorug'** ekan... Anor yegim kelardi..." [2,126]*

Mazkur maqol ko'pincha qiyin ahvolga tushib qolgan kishilarga tasalli berishda, ularni yupatishda, qo'llaniladi. "Hayot har doim tekisda ketmaydi" degan fikrni maqol juda sodda, lekin chuqur tarzda ifodalaydi. Har birimiz qiyin damlarni boshdan kechiramiz: ishlar umuman kutilganidek bormaydi, moddiy yoki ruhiy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shunday paytlarda insonning qalbi bezovta bo'ladi. Ammo shuni yodda tutish lozimki, yomon kunlar doimiy emas, yorug' kunlar albatta



keladi. Maqoldan chiqadigan xulosa shu. *Sinonimlari*: “Bir oyning yarmi qorong‘i bo‘lsa, yarmi yorug‘”, “Gadoyga bir eshik yopiq bo‘lsa, bir eshik ochiq, Oyning beshi qorong‘u balsa, beshi yorug‘”, “Har subhning bir oqshomi bor, har oqshomning bir subhi bor”, “Kir oydinning ochiq oyini ham bor”, “Botar kunning otar tongi bor”, “Qorong‘u tun mangu bo‘lmas”, “Qora kuzning qori turmas”[9]. Maqolning boshqa tildagi variantlari: Ingliz tilida: “After rain comes sunshine”[8]. Rus tilida: “Взгода и невзгода — что погода и непогода”[8]

Muqimiy ijodida ushbu maqoldan foydalangan:

Har tarafga bo‘lmagil o‘zni urib betoblar,

Oyni o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi maxtoblar

Maqolda *antiteza* san’atidan foydalanilgan. *Antiteza* (antithesis – qarama-qarshi qo’yish, zidlash) [7] deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo’yish, zidlash hodisasiga aytiladi[5,2]. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma’noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z iboralardan foydalaniladi. Bu maqolda “qorong‘i” va “yorug‘” so‘zlari qarama-qarshi ma’noda ishlatilgan, shu orqali hayotdagi o‘zgarishlar, qarama-qarshi holatlarning tabiati ifodalangan.

Oysara opam to‘g‘ri aytadi: Muzaffar erta-indin esini tanib oladi. Ot aylanib qozig‘ini topadi. Endi kelmayman. Bo‘ldi! Nima qilaman bolani qiynab?[2,560]

Asarda qo‘llanilgan ushbu maqolning ko‘pincha faqat birinchi qismi aytiladi. Maqolning to‘liq shakli: “Ot aylanib qozig‘ini topar, yer aylanib yozig‘in topar”. Maqolning ma’nosi shuki, otni dalada, yaylov joyda bermalol yayrab, o‘tlab yursin deb, uni uzun arqonga bog‘lab, qoziq qoqib qo‘yadilar. Ot yon-atrofdagi o‘tlab yuraveradi-yu, ammo qoqilgan



qoziqdan yiroqqa ketib qololmaydi, aylanib-aylanib yana shu yerga kelib qolaveradi. Maqolda ana shu hol misolga olingan va majozan: “Biror sabab bilan (arazlab, xafa bo‘lib, kelisholmay, chiqisholmay, norizo bo‘lib, biror ayb qilib qo‘yib va hokazo) o‘z yurtidan, oilasidan yoki ish joyidan boshqa yerlarga ketib qolgan odam, axiri bir kunmas-bir kun qaytib keladi, yana o‘z tug‘ilib-o‘sgan joyida, o‘z ishida muqim topib, tinib-tinchib, turg‘un bo‘lib qoladi” demoqchi bo‘lingan.

Variantlari: “Ot aylanib qozig‘in topar, Suv aylanib yorig‘in topar”, “Ot aylanib, qozig‘idan ketmaydi”, “Ot aylanib qozig‘iga qaytadi”.[9]

*“Tamom bo‘ldi! Bugun hammasi tamom bo‘ldi! Nima qilay? Osmondagi yulduzdek uzoqlab ketgan o‘g‘lim deb qizimdan - Nasibadan ayrilishim kerakmi? Bugun Muzaffar ochiq-oydan aytdi-ku! “Tinch qo‘ying”, dedi-ku! Javobimni oldim, bo‘ldi-da! **Mingta shirin yolg‘ondan bitta achchiq, haqiqat afzal!**”[2,560]*

Ushbu maqol, oddiy so‘zlar bilan aytilsa-da, hayotiy haqiqatni chuqur ifodalaydi. Insonlar ko‘pincha vaziyatni osonlashtirish uchun yolg‘on so‘zlaydilar. Lekin yolg‘on qanchalik shirin bo‘lmasin, uning oqibati doimo achchiq bo‘ladi: ishonch yo‘qoladi, munosabatlar buziladi. To‘g‘ri, yolg‘on vaqtinchalik yengillik berishi mumkin, lekin oxiri achchiq bo‘ladi: ishonch yo‘qoladi, munosabatlar buziladi. Haqiqat esa qattiq, lekin inson orasidagi hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois, to‘g‘riso‘zlik, halollik hayotiy qadriyat va mustahkam jamiyat poydevoridir. Erkin Vohidov o‘zining “Yaxshidir achchiq haqiqat” she’rida

ushbu maqolning variantidan foydalangan:

Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg‘on yomon.
Ul shirin yolg‘onga mendek aldanib qolg‘on yomon.
Umrimiz aldoq jahonda aldanib o‘tgay, va lek
So‘nggi qiynalg‘on yomondir, so‘nggi qiynalg‘on yomon[4,35]



Bu maqolda *antiteza* san'atidan foydalanilgan. “shirin”, “yolg'on” va “achchiq”, “haqiqat” so'zlari bir-biriga qarama-qarshi ma'noni bildiradi. Shu orqali maqol muallifi haqiqatni yolg'ondan ustun qo'yish, rostgo'ylikning qadrini ta'kidlamogda.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida yozuvchi xilma-xil janrlardan mohirona foydalangan. Asardagi maqollar esa mazmun jihatdan ulkan ma'no kasb etadi va har biri o'zining serjilo, falsafiy mohiyatini ko'rsatadi. Romandagi maqollar nafaqat xalq og'zaki ijodining boyligini aks ettiradi, balki insoniy qadriyatlarni – mehmondo'stlik, ota hurmati, haqiqatga sodiqlik va hayotiy saboqlarni ifodalaydi. Shuningdek, maqollar romanning badiiy qiymatini oshirib, obrazlarni yanada jonli va ta'sirchan qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. “Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. – 680.
2. Hoshimov O'. “Ikki eshik orasi”. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2013. –749.
3. Suvonqulova X. “O'zbek xalq maqollari”. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014. – 152.
4. Vohidov E. “O'zbekim: She'rlar”. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2005. – B. – 128.
5. Yoqubjonova M. “Badiiy matnlarda antitezaning qo'llanilishi”. – Andijon: Ozbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2022. – 3.



6. Sharipova M. Bafoyeva D. “Ozbek xalq maqollarida ishtirok etgan qarindoshlik terminlarining semantik xususiyatlari”. – Buxoro: ISSN (E): 2992-9148 SJIF 2024 = \$.333 ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2024 VOLUME-2, ISSUE-5.

7. <https://uz.wiktionary.org>

8. <https://maqollar.uz>

9. <https://talimmarkazi.uz>